

**FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK VA STRUKTURAVIY
XUSUSIYATLARI****Umaraliyeva Odinabonu Baxromjon qizi***SamDU Filologiya fakulteti talabasi***Annotatsiya**

Mazkur maqolada frazeologiyaning nazariy asoslari, frazeologik birliklarning semantik va struktur xususiyatlari hamda ularning til tizimidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, frazeologizmlarning idiomatik tabiati, ifoda va mazmun munosabati hamda o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические основы фразеологии, семантические и структурные особенности фразеологических единиц, а также их место в языковой системе. Анализируется идиоматическая природа фразеологизмов и их исследование в узбекском языкознании.

Abstract

This article explores the theoretical foundations of phraseology, focusing on the semantic and structural features of phraseological units and their role in the language system. It also analyzes their idiomatic nature and their study in Uzbek linguistics.

Kirish

Frazeologiya atamasi jahon filologiya ilmida 1558 yilda ingliz adabiyotshunos olimi Neandr tomonidan birinchi marta qo‘llagan. U badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida ushbu atamani ishlatgan. Ma‘lum bir asarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilganda turg‘un so‘zlar bog‘lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo‘lmay qolgan. Frazeologik birliklarning ko‘pchiligi lug‘at va boshqa adabiyotlarda mujassamlashgan bo‘lsada, G‘arbiy Yevropa va Amerikaning tilshunoslikka oid adabiyotlarida frazeologiya nazariyasiga oid ilmiy ishlar ham uchraydi.

Frazeologizmning semantik tuzilishi (ma‘no imkoniyatlari) frazeologik ma‘no (barqaror birikma asosida ifodalanadigan axborot) va qo‘shimcha ma‘no bo‘yoqdorligidan iborat bo‘ladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeolo- gizm ifodalaydigan ma‘lumot frazeologik ma‘no deyiladi. Frazeologik ma‘no obrazlilik bilan leksik ma‘nodan farq qiladi.

Tilda ham shakl va ma‘no munosabati mavjud. Tilda shakl deganda, odat- da, tilning materiyasi – tovush – ko‘zda tutiladi. Tovush tomoni “tilning ifoda plani” deb ham yuritiladi. Tovush yozuvda harf bilan ko‘rsatiladi. Shu asosda talaffuz shakli va yozuv shakli farqlanadi.

Til hodisasi ko‘pincha yozuvda aks ettiriladi, shu sababli yozuv asosiy shakldek tuyuladi. Asli til – tovush tili, yo- zuv – shu tovush tilini grafik ifodalash sistemasi. Masalan, qo‘l so‘zining shakli (ifoda plani) q, o‘, l harflari bilan yozib ko‘rsatiladigan shu uch tovushning xuddi shunday tizimiga va tartibiga teng. Yolg‘iz shaklning o‘zi hali til birligi emas. Til birligi bo‘lish uchun ma‘lum shaklga ma‘lum bir ma‘no biriktirilgan bo‘lishi lozim. Bunday ma‘no til birligining mazmun plani deb yuritiladi. Bunday ma‘noni biror shakl nutqning o‘zida (nutq bosqichida) kashf etmaydi, balki bunday ma‘no biror shaklga tilda (til bosqichida) biriktirilgan bo‘ladi, nutq shuni qalqitib beradi. Qo‘l so‘zi Qo‘lim zirqirab og‘riyapti gapida “kishi tanasida yelkadan boshlanib, barmoqlar bilan tugaydigan, ushlar, ko‘rsatish kabi vazifalarni bajaradigan a‘zo” ma‘nosini anglatadi. Demak, ma‘lum shakl (qo‘l tovush tizimi) va ma‘lum bir ma‘no (yuqorida ta‘riflandi) birgalikda til birligini tashkil qiladi.

Ma‘lum shaklga ma‘lum bir ma‘noning biriktirilishi affikslarga (morfema - larga) ham xos. Masalan, boradi so‘zi tarkibidagi -di morfemasi “III shaxs” ma‘nosini, -a morfemasi “hozirgi-kelasi zamon” ma‘nosini ifodalaydi. Bunday morfemalarning ma‘nosi grammatik ma‘nodir. Shu so‘z tarkibidagi bor- qismi- dan esa tamoman boshqa tur ma‘no anglashiladi. Bu qism “makondagi yaqin nuqtadan uzoqdagi nuqtaga harakatlanib yo‘nalish” ma‘nosini anglatadi. Biror predmetni, harakat-holatni yoki shularga mansub belgi-xususiyatlarni nomlov- chi bunday ma‘noga leksik ma‘no deyiladi. Leksik ma‘noni anglatuvchi birlik- ka leksema deyiladi. Grammatik ma‘noni ifodalovchi birlikka morfema deyila- di. So‘z ayni vaqtda ham leksik, ham grammatik ma‘noga ega bo‘ladi, demak, so‘z odatda leksema va morfemadan tuziladi.

Iboralar ham ifoda planiga va mazmun planiga ega. Sodda morfemada uning ifoda plani deb tovush ko‘rsatilsa, murakkab (qo‘shma) morfemada uni tashkil etgan morfemalar ko‘zda tutiladi (-chilik – chi + lik kabi). Shuningdek, tub lek- semada uning ifoda plani tovush tizimi bo‘lsa, yasama leksemada ifoda plani deganda uning tarkibidagi leksema va morfemalar ko‘zda tutiladi: talabchanlik (talab + chan)+lik kabi.

Ko‘rinadiki, tub til birliklarida (morfemalarda, leksemalarda) ifoda plani deb tilning material birliklari – tovush – olinadi; tarkibli (murakkab, yasama) til birliklarida esa ular tarkibidagi til birliklari ko‘zda tutiladi.

Ibora murakkab til birligi bo‘lib, kamida ikkita mustaqil turkum leksemasi- dan (so‘zlardan) tarkib topadi. Shunga ko‘ra iboraning ifoda plani sifatida lek- semalar va ularni bog‘lash uchun xizmat qiladigan morfemalar ko‘zda tutiladi.

Tarkibli leksema va morfemaning ma‘nosi, odatda, uni tashkil qiluvchi til birliklariga xos ma‘nolarning yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi, qismlar ma‘nosi asosida butunning ma‘nosi tushuniladi. Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning ma‘nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma‘nolarning oddiy yig‘in- disiga teng bo‘lmaydi. Iboraga xos ma‘no

tarkibidagi leksemalarning ma’nosi- ga nisbatan maxraj ma’no, ustama ma’no sifatida gavdalanadi, bu ma’no ibora tarkibidagi leksemalarning ma’nosiga asoslanmasligi ham mumkin.

Til ilmining rivojlanishida frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida qabul qilindi. Fransuz tilshunosi Sharl Balli frazeologiya atamasini fanga kiritgan bo’lsa, bu atama G’arbiy Yevropa va Amerika tilshunoslarining ilmiy asarlarida ko’p ishlatiladi. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o’rganish masalasi atoqli rus tilshunosi E.D.Polivanov tomonidan ilgari surildi. Uning takidlashicha leksika alohida so’zlarning ma’nosini, morfologiya so’zlarning shaklini, sintaksis esa so’z birikmalarining shaklini o’rganadi, uning fikricha, ana shu til sohalari barobarida ma’lum bir so’z birikmalarining ma’nosini o’rganuvchi alohida sohaga ham ehtiyoj seziladi. E.D.Polivanov frazeologiyani tilshunoslikda mustahkam o’rin egallashga ishonchi komil edi va shunday bo’ldi ham. Frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o’rganish masalasi rus olimi V.V.Vinogradov tomonidan ilgari surilgan V.V.Vinogradovning buyuk izmati shundaki, u frazeologik birliklarni semantik jihatdan guruhlarga ajratdi. Ammo uning xizmatlariga qaramay, frazeologiya leksikologiyani bo’limi sifatida qolaveradi, chunki frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil sohasi bo’la olishini isbotlovchi asosiy tushunchalar ishlab chiqilmagandi. Shunday qilib, frazeologiyani leksikologiyani bir bo’limi sifatida o’rganish davom etdi. E.D.Polivanov va V.V.Vinogradovdan so’ng birinchi bo’lib frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o’rganish masalasini ilgari surgan olim B.A.Larin edi. U frazeologiya sohasida yetarlicha ilmiy ishlar qilinmaganini ta’kidlab o’tdi ¹.

Frazeologik birliklar o’zbek tilining eng muhim va murakkab qatlamlaridan biri sifatida nafaqat leksik tizimning boyligini, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va badiiy tafakkurini ham o’zida mujassam etadi. O’zbek tilshunosligida frazeologiyani o’rganish ancha boy ilmiy an’anaga ega bo’lib, bu borada bir qator olimlar o’zlarining nazariy qarashlari bilan muhim hissa qo’shganlar. Xususan, Shavkat Rahmatullayev frazeologik birliklarni tilning “tayyor semantik bloklari” sifatida baholab, ularning asosiy belgisi sifatida semantik yaxlitlikni ko’rsatadi. Olimning fikricha, frazeologizmlar tarkibidagi komponentlar alohida ma’noga ega bo’lsa-da, ular umumiy ma’no hosil qilish jarayonida o’z mustaqilligini yo’qotadi va yangi, yaxlit semantik birlikka aylanadi. Bu holat frazeologik birliklarning idiomatik mohiyatini belgilaydi².

Xulosa

Mazkur matnda frazeologiyani nazariy asoslari, frazeologik birliklarning semantik va struktur xususiyatlari yoritildi. Frazeologizmlar turg’unligi, idiomatikligi va yaxlit ko’chma

¹ Yo’ldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir. – T.: O’TA, 1992.- B. 37-42.

² Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining frazeologik lug’ati. – T.: O’qituvchi, 1992. – B. 65.

ma'nosi bilan erkin so'z birikmalaridan farqlanishi asoslab berildi. Shuningdek, ularning ifoda va mazmun rejasi o'rtasidagi murakkab munosabat, obrazlilik asosida yangi ma'no hosil qilishi ko'rsatildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklar tilning muhim leksik-semantik qatlami bo'lib, ular xalq tafakkuri, madaniyati va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Shu sababli frazeologiyani chuqur o'rganish tilning ichki imkoniyatlarini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Александр Кунин. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1986. – С. 18.
2. Charles Bally. Linguistique générale et linguistique française. – Paris: Ernest Leroux, 1932. – p. 112.
3. Chomsky N. Language and Mind. – Cambridge: CUP, 2006. – p. 88.
4. John Sinclair. Trust the Text: Language, Corpus and Discourse. – London: Routledge, 2004. – p. 29.
5. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – T.: O'zbekiston, 2002. – B. 89.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1992. – B. 65.
7. Safarov Sh. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 134.
8. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 2007. – B. 156.
9. Yo'ldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir. – T.: O'TA, 1992. – B. 37-42.
10. Abduraxmonov M. [Qiyosiy adabiyotshunoslikda urush va tinchlik konseptual tahlilining nazariy-metodologik asoslari](#). Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. 2 (7), 429-433